

NATYURMORT

SHoxida Botirova Odiljonovna

ADPI, ning Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi Kafedrasida katta o'qituvchisi

Karimov SHoyadbek Nazirjon og'li

ADPI, bakalavr Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi yo'nalishi talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada asosan ranglarni birbiriga uyg'inligi va narsa buyumlarni birbiriga nisbatlari ko'rsatilgan. Natyurmo'rt janriga katta hissa qo'shgan raso'mlar haqida malumotlar berib ketilgan. Yanaham tushinish osonroq bo'lishi uchun rasimlar bilan ko'rsatilgan.*

Abstract: *This article mainly shows the harmony of colors and the ratio of objects to each other. Information about painters who made a great contribution to the genre of still life has been given. It is illustrated with pictures to make it easier to understand.*

Kalit so'zlar: *Perespektiva, qalam, Kist, Akvarel.*

Natyurmort (frans. nature morte — jonsiz tabiat) — tasviriy san'at janri. Insonning atrofini o'rab turgan real maishiy muxitda joylashgan va kompozitsiya jihatidan yaxlit guruhni tashkil qilgan narsalar tasvirlanadi; shuningdek, shu janrda yaratilgan rassomlik asari ham N. deb ataladi. Asosan, dastgoxli rassomlik (rangtasvir va grafika)la, qisman haykaltaroshlik (asosan, relyef)sa ishlanadi. N.da "jonsiz buyumlar" (Mas, uy-ro'zg'or buyumlari, qurol-aslahalar va boshqalar)dan tashqari, tabiatdan ajratib olingan va buyum, narsalarga aylantirilgan jonli tabiat narsalari (stoldagi baliq vazadagi gul va boshqalar) ham tasvirlanadi. Asosiy mavzuni to'ldirish uchun ba'zan N.ga odamlar, hayvonlar, kushlarni ham kiritish mumkin. Maishiy asosidan ajratib olingan mayda narsalarning muhimligi boshqa janrlarga nisbatan N.da namoyon bo'ladi.



N.da tasvirlanayotgan (mustaqil aks ettirilayotgan yoki kartinalarda asar mazmunini boyitadigan va to'ldiradigan) buyumlar o'z egasining fe'l-atvorini, qiziqishini yoritishga yoki buyumlarning shakli, rangi, fakturasi, tuzilishidagi ritmik, dinamik va statik holatlarini ko'rsatishga qaratilgan.

N. Qad. Misrda devorga ishlangan freskalarda, ellinizm davri mozaikalarida, Xitoyda ("qush va gullar", 7-asrdan) kompozitsiya bo'lagi sifatida ma'lum bo'lgan; Yevropada 16-asr oxiri — 17-asr boshlaridan mustaqil ahamiyatga ega bo'ldi, keng tarqala boshladi, eng taraqqiy etgan davri 17-asrga to'g'ri keladi, 18-asrdan "N." atamasi qo'llanila

boshladi. Italyan rassomi M. Karaeajo va uning izdoshlari (karavajizm) N.ning keng tarqalishida muhim rol o'ynadi: gul va mevalar, dengiz in'omi — baliq, qisqichbaqalar sevimli mavzuga aylandi. Gollandiya (V.K.Xeda, P.Klas va boshqalar), Flandriya (F.Sneyders, Ya. Feyt va boshqalar), Ispaniya (F.Surbaran va boshqalar), Fransiya (J.B.Sharden va boshqalar) va boshqalarda yuksak taraqqiyotga erishdi. P. Sezann, A. Matiss, J. Brak va boshqa N.ga ko'proq e'tiborni qaratganlar. 20-asrda N. realistik an'analarini Meksikada D. Rivera, D. Sikeyros, Italiyada R. Guttuzolar davom ettirdi. Rossiyada N. 18-asrda paydo buldi, kuzni aldaydigan "xuddi o'ziga o'xshash" (aldamchi) rasmlar ishlashdan (G.N.Teplov, P.G.Bogomolov va boshqalar) shakllanib bor-di, 19-asr 1-yarmida haqqoniylikka, borliqni o'zidan go'zallik topishga harakat qilindi (M.A.Vrubel, K.Korovin, I.E.Grabar va boshqalar), shakl, faktura va bezakdorlik borasidagi yutuk, larga erishildi (P. Kuznetsov, P.P.Konchalovskiy, A.Kuprin va boshqalar).



O'zbekiston tasviriy san'atida N. unsurlari qad. davr san'atida (Mas, Afrosiyob devoriy rasmlarida — vazadagi mevalar), miniatyura san'atida (Mas, Kamoliddin Behzodning Shayboniyxon portretida tasvirlangan buyumlar — siyohdon, qamchi) uchraydi. N.ning haqiqiy shakllanishi va rivojlanishi 20-asrning 30—50-yillariga to'g'ri keladi. Ayni shu davrda rassomlarning ijodida N.ning dastlabki namunalarini paydo bo'ddi: L.Nasriddinov ("Nonli N."), Sh. Hasanova ("Xitoy chinnisi bilan ishlangan N.") va boshqa; M. Kurzin, V. Rojdestvenskiy, V. Ufimsev, N. Kashina, 3. Kovalevskaya, O. Tatevosyan, S. Abdullayev, V. Fadeyev, Yu. Yelizarov va boshqa N. yaratdilar. 60—80 yillarda L. Salimjonova, Yu. Taldikin, R. Choriyev, V. Burmakin, Ye. Melnikovlar ijodida N. keng o'rin tutadi. Rassomlar R. Ahmedov, A. Ikrom-jonov, M. Nuriddinov va boshqa N.da samarali ijod qilib, N.ning taraqqiyotini ta'minladilar. Niderlandiyada L. Leydenskiy; Gollandiyada Rembrandt; Flandriyada P. P. Rubens; Fransiyada J. Kalllo, O. Domye; Ispaniyada F. Goyya; Rossiyada A. Zubov, A. Venetsianov, O. Kiprenskiy, I. Shishkin, V. Serov va b.20-a. jahon Grafika sining yetuk namoyandalari: P. Pikasso, J. Effel (Fransiya); R. Guttuzo, G. Mukchi (Italiya); F. Mazerel (Belgiya); X. Bidstrup (Daniya); R. Kent (AQSH); G. va L. Grunding, O. Nagel. V. Klemke (Germaniya); T. Kulisevich, Yu. Mroshchik (Polsha); D.Moor, V. Deni, V. Favorskiy, A. OstroumovaLebedeva, Kukrinikslar (Rossiya) va b.O'zbekistonda Grafika 20-a. da shakllandi va rivojlandi. Rassomlar I. Ikromov, V. Kaydalov, L. Abdullayev, T. Muhamedov, K. Nazarovlar kitob bezaklari, Q. Basharov ilk kitob suratlari va ajoyib

linogravyura asarlari bilan o'zbek tasviriy san'ati taraqqiyotiga katta hissa qo'shdilar va o'zbek Grafikasi maktabining vujudga kelishiga zamin yaratdilar.

20-a. ning oxirgi choragida ijodkorlar safiga M. Kagarov, L. Ibrohimov, M. Sodikrov, A. Mamajonov, A. Bobrov, V. Apuxtin, F. Basharova, A. Li, G. Li kabi rassomlarning kelib qo'shilishi Grafikani ham badiiy mahorat, x. am mavzu jihatdan boyishini ta'minladi. O'zbek grafikachilari Grafikaning barcha sohalari (akvarel, litografiya, ksilografiya va b.)da samarali ijod qilib, mavzu jihatdan rang-barang (tarix, zamonaviylik, ekologiya va b.) asarlar yaratmoqdalar, jahon va o'zbek mumtoz adabiyotiga, Sharqning buyuk arboblari, yozuvchi va olimlari siimolariga murojaat qilmoqdalar.

RANGTASVIR. RANG MUNOSABATLARI


Natyurmort va uni ishlanish usullari haqida fikr yuritishdan oldin biz rangtasvir haqida aytib o'tsak. Albatta har bir tasviriy san'at soxasi bilan faoliyati bog'liq inson - hoh u rassom bo'lsin, hoh tasviriy san'at fani o'qituvchisi yoki shu soha bilan bog'liq bo'lgan xunarmand :- barchasi birinchi o'rinda qalamtasvirni yaxshi bilgan holda rangtasvirga kirib boradi (rangtasvirga bog'liq sohalarda). Shu o'rinda rangtasvir o'zi nima-?, rangtasvirda qalam tasvirning o'rni qanday-? degan savollarga javob berib o'tamiz.

Rangtasvirning ilmiy negizini rangshunoslik fani tashkil qiladi. Rangshunoslik bo'lg'usi rassomlarga ranglarni tabiatda hosil bo'lishi va tarqalishi masalalarini ularning atrof-muhit ta'sirida o'zgarib ko'rinishini, bo'yoqlarini tayyorlash va ulardan foydalanish yo'llarini o'rgatadi.

O'rta Osiyoda ranglar haqidagi talimot qadimdan kitob miniatyurasi, naqqoshlik, devorlarga freska, pannolar ishlash bilan bog'liq holda rivojlanib kelgan. Chunki musavvirlik xunari rang tanlash va ularni tayyorlay bilishni talab etadi. Naturadagi rangtasvir jarayoni , natyurmort ishlash usullari hamda uning o'ziga xosliklari Naturadan rangda tasvirlash jarayoni o'z qonun-qoidalariga ega. Ishning boshlanish qismida nimalar qilish, o'rtasida qaysi masalalarni hal etish va ish oxirlab qolganida uni qanday yakunlash kerakligini bilish zarurdir. :

Umumiy tus va rang holatlari va natura bo'yoqlarining bir-biriga yaqinligidagi tus va rang munosabatlarini topa bilish;

Katta rang – tusli munosabatlar chegarasidagi rang-tuslarning “cho'zilishi”, alohida buyumlarni xajmli shakllarini batafsil rangli qayta ishlanishi. Butun tasvirning umumiyliigi, yaxlitligi hamda kompozitsiya markazini ko'rsata bilish.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. G'.A Artiqov. Rangtasvir texnikasi va Ashyolar texnologiyasi
2. Киплик Д.И. Техника живописи. - М.Л 1950.
3. Виннер А.В. Как пользоваться темперой - М., 1951.
4. S.Abdurasilov, N.Tolipov - Rangtasvir 2017.
5. F.M.Абдурахмонов - Композиция асослари 2003.
6. 8. Abdurahmonov A. va boshqalar. Pespektivada soyalar.
7. 9. Abdurahmonov G '. Kompozitsiya.
8. 10 . Барышников А.П. Перспектива.
9. 11 . Макарова М.Н. Перспектива
10. 12 . Соловьев И.А., Буланже Г.В., Шульга А.К. Черчение и перспектива.